

Course: Islamic Finance

Lecture 4: Islamic Banking Services (Leasing based and Project based products)

Prepared by: Dr. Shaamirova Surayyo

Ijara tamoyili.

Tayanch soʻz iboralar: *Vadia, Qarzi hasan, rahn, vadiya, bay inah, ujr, urbun, vakolat, tavarruq.*

Islomiy banklar anʼanaviy banklar singari mijozlardan omonatlar qabul qiladi va bu ularning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Islom foizlar hisoblash va olishni – riboni man etgani uchun islomiy banklar oʻz mijozlariga islomiy meʼyorlarga muvofiq keladigan bank xizmati koʻrsatishlari lozim boʻladi. Bank oʻz xizmatlarini taklif etguniga qadar rahbariyat, eng avvalo, islomiy huquqning mutlaq va bosh manbalari Qurʼon va hadislarga murojaat etishlari kerak.

Biznesga oid barcha tamoyil va taqiqlar, albatta, diqqat bilan oʻrganilishi lozim. Alloh taolo Qurʼonning koʻplab oyatlarida poraxoʻrlikni taqiqlagan va ishonch, adolat ila tarozi va oʻlchovdan foydalanishga chaqirgan.

Bundan tashqari Qurʼonda tomonlar oʻrtasidagi kelishuv yozma tartibda guvohlar ishtirokida rasmiylashtirilishi, tomonlarning majburiyatlari va kafolatlari belgilangan boʻlishi lozimligi aytib oʻtilgan. Hadislarda oldi-sotdi masalasida bir qancha echimlar koʻrsatib berilgan. Baʼzi hadislarda islomiy bitimlarning mana shunday, yaʼni salam (oldi-sotdi shartnomasi boʻlib, tovarlar etkazilish muddati uzaytirilishi mumkin: tovarning qiymati oldindan toʻlanadi va taraflar kelishgan muddatda etkazib beriladi), yollash, havola (veksel, tilxat), qarzlarni kreditlarni soʻndirish, aktivlarni muzlatish, bankrotlik, sherikchilik, ijara, tadbirkorlikning shartlari va guvohnomasi tomonlari koʻrsatib oʻtilgan. Qurʼonda moliyaviy faoliyatga doir bir qancha oyatlar va hadislar kelganiga qaramay, zamonaviy bank tizimida taʼkidlangan tamo-yillarni qoʻllash murakkabdek tuyuladi. Demak, islomiy olim va huquqshunoslar (islom qonunchiligi sohasi ekspertlari) zimmalariga masʼuliyatni olgan holda shariat qoidalarini buzmaydigan va joriy bank qonunchiligiga muvofiq keladigan biznes yuritish tamoyillarini oʻrnatishlari kerak

bo'ladi.

Islomiy banklar xizmat ko'rsatish usullari tarkibini tashkil etadigan islomiy tamoyillarni ifodalovchi turli atamalardan foydalanadilar. Ayrim islomiy banklarda arab atamalaridan, boshqalarida arab va ingliz tili aralashmasidan va yana birlarida bank faoliyati amalga oshirilgan mamlakatning mahalliy tilidan foydalanilayotganini ko'rish mumkin.

Shariat tamoyillari asosida islomiy bank ishi yuritayotgan mamlakatlar to'g'risida keyingi boblarda tanishib chiqamiz.

Qanday atamalardan foydalanishidan qat'i nazar, islomiy bank tizimidagi shariat tamoyillarini 5 toifaga ajratish mumkin. **Birinchi** toifa foyda va zararlarni taqsimlash tamoyili, **ikkinchisi** oldi-sotdi tamoyili, **uchinchi** toifa o'z ichiga yig'im va komissiyalarni oladi. **To'rtinchi** toifa bepul xizmat tamoyillarini, **beshinchisi** esa yordamchi tamoyillarni bayon etib beradi.

Quyidagi tamoyillar aksariyat islomiy banklar tomonidan ko'p holatlarda amaliyotda ishlatiladi: muzoraba, mushoraka, murobaha, ijara, ijara val-iqtino, muajjal bay, istisno', qarzi hasan, vadia, rahn. Sanab o'tilganlardan tashqari islomiy moliyalarning boshqa tamoyillaridan ham amaliyotda foydalaniladi. Masalan, Malayziyada dayn bay, ijara tumma bay, vakolat, havola, ujr va vadia yad damana tamoyillari tarqalgan. Eronda ham bir talay qo'shimcha tamoyillar: joala, mozaraax, mosakat kabi tamoyillar kiritilgan. Bunday ko'p miqdordagi shariat tamoyillarining ishlatilishi ba'zi taxminlarga sabab bo'ladi va ushular haqiqatdan ham shariatga asoslangan islomiy moliyalash vosi-talarimi yoki hiylalarmikan, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Hiyla – musulmon huquqchiligida shariatga unchalik mu-vofiq kelmaydigan turli huquqiy sxemalarni ish-latib, ma'lum maqsadga erishish yo'llaridir. Islom huquq-shunoslari o'rtasida hiyla kontseptsiyasiga bir xil munosabat mavjud emas. Hanafiy huquqiy maktabi shariat mahsulotlarini yaratishda mazkur kontseptsiyani qo'llashni ma'qullagan. Shofe'-iylar huquqiy maktabiga kelsak, garchi maktabning keyingi davomchilari hiylani ma'qullashsa-da, umuman olganda bu yo'nalish mavqeiga ziddir. Ikki boshqa huquqiy maktab (Molikiy va Hanbaliy) bu

kontsepsiyadan foydalanishga qarshilik qilishadi. Molikiy mazhabi tomonidan saddad-daro‘i tamo-yili belgilangan maqsadga erishish uchun qonunan ruxsat berilgan har qanday usulni, agar u dastlabki paytdanoq noqonuniy xarakterga ega bo‘lgani yoki harom toifaga muvofiq kelgan hollarda sababning oldini olish tamoyili amalga kiritilganligi hiylani man etishni tasdiqladi. Hanbaliya mazhabi tomonidan ham hiyla kontsepsiyasidan foydalanishga qarshi ko‘plab chiqishlar qilib kelinmoqda.

Ijara tamoyili. Qarzi hasan tamoyili

Ijara – renta, ijara yoki ishlatishga berish shartnomasidir. Haqiqatda esa ijara uchinchi shaxsning mulkini shart-noma asosida o‘rnatilgan to‘lov hisobiga ishlatishdir. Ijara bitimida shariatning bir qator qoidalari amal qiladi.

Birinchi qoida – *xiyar ar-ro‘yo* xaridor tomonidan tovarning tavsifiga monand emasligi natijasida shartnomaning bekor qilinishidir.

Ikkinchisi – *xiyar al-ayb*. Agar xarid natijasida tovarning sifati pastligi yoki kamchiliklari aniqlansa, u holda xaridor bitimni bekor qilishga haqli.

Uchinchi qoida – *xiyar ash-shart*. Bu erda ikkala tomonning har qanday vaqtda o‘rnatilgan muddat va ma’lum sabab-larga qaramay shartnomani bekor qilishga haqli ekanligi.

To‘rtinchi qoida – *fash* yoki bekor qilish va chaqirib olish. Oxirgisi – *iqola* – almashtirish yoki qoplama berish.

Molikiy mazhabi ijarani oldi-sotdi shartnomasi bilan o‘xshash tamoyil sifatida ko‘rib chiqadi va ijara quyida-gi holatlarda o‘z kuchini yo‘qotadi: birinchidan, agar lizing yoki ijaraga olingan ob’ekt shariat huquqiga zid maqsad-larga, masalan, binolarni axloqqa zid narsalarga yoki qimor o‘yinlariga, alkogol yoki boshqa man qilingan tovarlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilsa, shartnoma bekor qilingan hisoblanadi. Ikkinchidan, agar shartnoma tabiatan bajarilishi lozim bo‘lgan, masalan, onani o‘z bolasini emizishga yollash kabi harakatlarni amalga oshirishga majbur etsa, bu holat ham uning bekor bo‘lishiga olib keladi. Hanafiy mazhabi

ijarani arabchada “ayn” deb ataladigan yoki moddiy narsalarni shariat huquqiga zid bo‘lmagan asosda foydalanish yoki qo‘llash uchun tuzilgan shartnoma sifatida qabul qiladi.

Shofe’iy mazhabi bo‘yicha ijara shartnomasi – predmeti oldindan aniq bo‘lgan ijara yoki lizing shartnomasidir. Shartnoma ob’ekti shariat nuqtai nazaridan ruxsat etilgan bo‘lishi, ko‘chirilishi yoki boshqaga berilishi mumkin bo‘lgan hamda belgilangan to‘lov yoki ijara to‘loviga ega bo‘lishi lozim. Hanafiy mazhabi esa, o‘z navbatida, ijara shartnomasida shartnoma predmetining egasi ikkinchi tomonga ma’lum to‘lov evaziga moddiy buyumdan foydalanish huquqini berishi ifodalaniishi lozim deb hisoblaydi. Ijara huquqiy jihatdan bajarilishi lozim bo‘lgan shartnoma ekanligiga barcha mazhablar yakdillar. Lekin ijara shartnomasini bekor qilish masalasida turli mazhab olimlari o‘rtasida qarama-qarshi fikrlar ham bor.

Shofe’iy va molikiylar fikriga ko‘ra, shartnoma ob’ektida jiddiy buzilishlar aniqlangan holdagina ijara shart-nomasi chaqirib olinishi mumkin. Shuningdek, ijaraga olingan ob’ekt o‘z vazifasini bajara olmaydigan holatga kelib qolsa ham shartnoma o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblanadi. Hanafiy mazhabida asosli sabablar bo‘lgani holda shartnomani bekor qilish mumkin. Hanbaliy mazhabi shartnomani bekor qilishga ob’ektning yo‘q bo‘lib ketishi yoki ahamiyatli buzilishning mavjudligi asos bo‘ladi deb hisoblaydi.

Ijara shartnomasi 2 ta holat yuzaga kelganda: 1) shartnoma predmeti ma’lum muddatga yoki 2) shartnoma ob’ekti ma’lum bir vazifani bajarishga aloqador holida tuziladi.

Agar shartnoma vaqt mezoniga tayanib tuzilgan bo‘lsa, unda uning muddati va vaqt oralig‘i aniq asoslab berilgan bo‘lishi lozim. Agar ijara shartnomasi qishloq xo‘jaligi erlarini ijaraga berishni o‘z ichiga olsa, u holda bajarilishi lozim bo‘lgan bir qator talablar qo‘yiladi. Zarar keltirishi mumkin bo‘lgan, masalan, ijaraga oluvchidan g‘alla hosili uchun suv talab etilayotgan bir vaqtda suvni chiqarib tashlash uchun kanal qazishni talab etish mumkin emas. Agar shartnoma muddati

tugasa-yu, hosil hali yig'ishtirilmagan bo'lsa, shartnoma hosil yig'ilgunga qadar uzaytiriladi va ijarachi ijara to'lovini davom ettiradi.

Shariatning qishloq xo'jaligi sohasida ijarani qo'llash bilan bog'liq yana bir necha tamoyillari bor. Bu Eron Islom Respublikasida qo'llaniladigan mozarah va mosakat tamoyillaridir. Ushbu tamoyillarga ko'ra ijara to'lovlari qishloq xo'jaligi mahsulotiga qo'yiladigan stavkalar bilan bog'liq. **Mozarah** – bu er egasi yoki mozariy bilan omil o'rtasida qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun ma'lum muddatga er berish shartnomasi. Ikkala tomon olingan daromadni kelishilgan mutanosiblikda bo'lishib oladilar. **Mosakatesa**, qishloq xo'jaligi ekinlari egasi va tadbirkor o'rtasida hosil olish uchun tuzilgan shartnoma. Bunday shartnomada ikki tomon bo'lishib oladigan daromad mevalar, gullar yoki poyalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. (Hedayati, 1993)

Ijara val-iqtino ijaraning shakllaridan biri hisoblanadi. Bu ko'char va ko'chmas mulk ijarasini o'z ichiga oluvchi tushunchadir. Agar ijarachi ijara muddati tugagach, tovarni xususiy mulk sifatida sotib olmoqchi bo'lsa, uning ijara to'lovlari xarid narxining bir qismi sifatida ko'rib chiqiladi. Boshqacha aytganda, ijara val-iqtino ijarachiga mulkka ega bo'lish huquqini berish bilan bog'liq bitimdir. Malayziya amaliyotida ijara val-iqtino ijara tumma al-bay – keyinchalik sotib olish huquqi ijara shartnomasi bilan o'xshash.

Ijara tumma al-bay ikkita alohida bitimdan: ijara va oldi-sotdi shartnomasidan iborat bo'ladi. Ijara shartnomasiga ko'ra mijoz belgilangan vaqt ichida ijara to'lovini to'lash majburiyatini oladi. Birinchi shartnoma tugagandan so'ng ijarachi ikki tomon kelishgan bahoda mulkni sotib olishi mumkin (Bank Negara Malaysia, 1994). Yuqorida qayd etilgan ijara turlaridan tashqari Malayziyada yana bir **al-muntahiya bit-tamlik** ijarasi lizingda keng qo'llaniladi. Bunda lizing shartnomasi yakuni bo'yicha mulk lizing oluvchining mulkiga aylanadi.

Islomiy moliyalashning mazkur vositasi Malayziyada al-qarz ul-hasan, Eronda – qarz al-hasan va Pokistonda qarz-e-hasna deb nomlanadi. Bu shunday xayriya krediti bo'lib, qarz oluvchi kreditorga faqat qarzning asosiy summasini qaytaradi.

Lekin qarz oluvchi o‘z fikridan kelib chiqib qarz beruvchiga qarzning asosiy summasiga qo‘shimcha mukofot sifatidagi to‘lovni amalga oshirishi mumkin. Bu shakldagi qarz shariat tomonidan ruxsat etilgan va foizsiz bo‘lib, u ijtimoiy va iqtisodiy adolatga erishish maqsadida joriy etilgan.

Alloh taolo Hadid surasi 11-oyatida shunday deydi:

“Allohga yaxshi qarz beradigan kishi bormi?! Bas, U Zot unga bir necha marta ko‘paytirib qaytaradi va unga karamli ajr bor”. (Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol)

Islomiy banklar qarz berishning bunday usulini quyi-dagi hollarda taklif etishlari joiz (Saleh, 1986): 1) bank kredit shartnomalari, odatda, mushoraka tamoyiliga ko‘ra tuzilsa va bu tamoyil mijozlarga emas, balki bank-larning o‘ziga yuqori foiz daromad keltirishini taxmin qilinsa, bunday hollarda mana shu xizmat turidan foydalaniladi. Qarzi hasandan aylanma mablag‘larni moliyalashtirishda foydalanish mumkin; 2) bu xizmat turi moliyaviy qiyinchiliklarga duchor bo‘lgan mijozlarga beriladi. Bank ushbu kreditlash turini investitsion faoliyatdan manfaatdor bo‘lishni xohlovchi mijozlarga yoki uning fikricha, yuqori kredit qobiliyati bor mijozlarga berishi mumkin; 3) bu xizmat turi bankda katta miqdorda depozit omonatlari mavjud mijozlarga berilishi mumkin. Moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan mijozlar bankka moliyaviy yordam so‘rab yoki o‘zlarining omonatlarini qaytarishni so‘rab murojaat etadilar. Shundan kelib chiqib bank imijini saqlash va vujudga kelishi mumkin bo‘lgan muammolardan chetlanib, mijozga qarzi hasan taklif etilishi mumkin.

Adabiyotlar ruyhati

Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). (2015). *Shariah standards* (No. 1–57). Manama, Bahrain: AAOIFI.

Bank Negara Malaysia. (1994). *Interest-free banking scheme*. Kuala Lumpur: Bank Negara Malaysia.

Hedayati, M. (1993). *Islamic banking and finance in Iran*. Tehran: Central Bank of Iran.

Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). *An introduction to Islamic finance: Theory and practice*. Singapore: Wiley.

Khan, T., & Ahmed, H. (2001). *Risk management: An analysis of issues in Islamic financial industry*. Jeddah: Islamic Research and Training Institute (IRTI), Islamic Development Bank.

Saleh, N. (1986). *Unlawful gain and legitimate profit in Islamic law: Riba, gharar and Islamic banking*. Cambridge: Cambridge University Press.

Usmani, M. T. (2002). *An introduction to Islamic finance*. Karachi: Idaratul Ma'arif.

Yusuf, M. S. M. (n.d.). *Tafsiri Hilol*. Tashkent: Hilol-Nashr.